

SHAXSNING IJTIMOYI USTANOVKALARI. SHAXS TIPLARI VA
ULARNING IJTIMOYIY PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI.

Rashidova Madina Tadjiyevna

Profi universiteti Navoiy filiali
Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi,

Usmonova Umida Ilxomovna

Profi universiteti Navoiy filiali
Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi.

Annotatsiya: Psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanilmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) muammosi shisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgandir.

Kirish: Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Masalan, bir kishiga badiiy adabietdan ainan bir guruh asarlar guruhi yoki shu adib yokishini tushunmaidi Usha guruhdan yangi bir kitob kitob qo'lga kirganda u albatta yokishi kerak degan tasavvurda bo'ladi shu manoda olib qaralganda ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlariga o'xshaydi. Lekin aslida uning tabiati juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma'no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi. Ya'ni ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu ob'ektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayorgarlik holatidir.

Ijtimoiy ustanovka muammosi Garbda, ayniqsa, Amerika Kushma SHtatlarida har taraflama chukur o'rganilgan muammolardan hisoblanadi. Amerikalik olimlar uning shaxsning avvalgi hayotiy tajribasiga, undagi ijtimoiy tasavvurlariga bogligini urginib, shaxs xulq atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar. (U. Tomas, F. Znanetskiy, G. Olport, M. Smit, K. Xovland, Laper, D. Kats, N. Rokich va boshqalar) ular ijtimoiy ustanovkani bir so'z bilan -"attityud"so'zi bilan ifodalaydilar. 1942 yildaek M. Smit attityudning uch komponentli strukturasi ishlab chiqqan. Bunga ko'ra attityudda uchs qism bo'lib, bo'lar kognitiv qism, affektiv qism hamda konativ qismlardir. Kognitiv qism - bu shaxsdagi attityud obektiga nisbatan bilimlar, uning odam tomonidan anglanishidir. Bunga shaxsdagi bilimlardan tashkari goyalar, tasavvurlar prinsiplar va xoka'zolar kiradi. Attityudning affektiv qismi - bu usha ob'ektni hissiy emotsional baholash bo'lib, yoktirish yoki yoktirmaslik tarzidagi hissiyotlar kiradi. Konativ qismi yoki xulq-atvor bilan bog'liq qismiga esa ob'ektga

nisbatan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, aynan xulq-atvor kiradi. Lekin ba`zi olimlarda ustanovkaning aynan ob`ektga yoki vaziyatga nisbatan bo`lishi mumkinligi haqida ma`lumotlar ham bor edi. Xususan, Laperning 1934 yilda o`tkazgan mashhur eksperimenti bunga masol bo`lishi mumkin. Eksperimentning mazmuni quyidagicha edi.

Laper ikkita xitoylik talabalar bilan AQSH buylab sayoxatga chiqadi. Ular hammasi bo`lib 252 ta mexmonxonada bo`lishib, ularning deyarli barchasida (bittasidan tashkari) ilik, samimiy munosabatning guvoni bo`lishadi. Ma`lumki, usha paytlarda irkiy belgi bo`yicha odamlarga tanlab munosabatda bo`lishar, xitoyliklar ham sarik tanlilar sifatida kamsitilardi. Laper bilan xamrox bo`lgan talabalarga munosabat bilan olimga bo`lgan munosabat o`rtasida deyarli fark sezilmadi. Saexat tugagach, Laper usha barcha mexmon egalariga minnatdorlik xati yozib, yana usha talabalar bilan borsa, yana ushanday ilik utib olishlari mumkinligini so`radi. Javob faqat 128 ta mexmonxona egalaridan keldi, ularning ham bittasi ijobiy javob, 58 da rad javobi, qolganlarida turlicha formalarida noaniq javoblar olindi. Bundan Laper shunday xulosaga keldi: demak, xitoy millatiga mansub shaxslarga nisbatan ustanovka bilan mexmonxona egalarining real xulq-atvorlari o`rtasida fark bo`lib, aslida ustanovka salbiy ekanligi, vaziyatga qarab esa, u boshqacha-ijobiy namoyon bo`lganligi aniqlandi.

Ijtimoiy ustanovkalarga xos bo`lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri uning uzoq muddatli xotira bilan bog`liqligidir. Ayni vaziyatga shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saklanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi, ya`ni "jonlanadi". Masalan, ba`zi bir etnik stereotiplar ana shunday xotira obrazlaridandir. Demak, ijtimoiy ustanovka ob`ektga hamda konkret vaziyatga bog`liqdir.

Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o`zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovlant fikricha, ijtimoiy ustanovka urgatish Yo`li bilan o`zgarishi mumkin. Ya`ni o`quvchilardagi turli ustanovkalarni o`zgartirish uchun ragbatlantirish yoki ja`zolash sistemasini o`zgartirish lozimdir. Ikki shaxs yoki shaxs bilan guruhning ustanovkalari mos kelmay qolgan sharoitda esa tomonlardan biri ongli ravishda o`z ustanovkalarini o`zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik prinsipiga ko`ra shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo`lishi mukarrardir.

Psixologlarning fikricha (G. Asmolov, P. SHixerev, V. A. YAdov, P. NadiraShvilli va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalarni o`zgartirish uchun shu ustanovkalarning sababi bo`lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o`zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo`ladi.

Shunday qilib, shaxs sotsiologiyasi jarayonida turli ustanovkalarni ruebga chiqarish sharoitida faollik kursatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy psixologik sifatlarda ko`ramiz. Ya`ni, aktiv birgalikdagi faoliyat, o`zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy psixologik fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlarni faoliyatda namoyon bo`ladigan hamda muloqotda ko`rinadigan sifatlarni guruhida bo`linadi. Masalan, tashki muxit bilan faol munosabat persektiv ximoya sifatlari, ya`ni o`ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo`lgan ijtimoiy ta`sirlardan ximoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatlarni ba`zi mualliflar persektiv qobiliyatlar (V.A. Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta`sirlarga hissiy javob berish qobiliyati" (A. Bodalev), "kuzatuvchanlik".

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, shaxsga sotsial-psixologik yendoshish uni ma`lum guruhlarning a`zosi, konkret sharoitda o`ziga o`xshash shaxslar bilan muloqotga kirishuvchi konkret odam deb tushunishdir.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. G`oziyev E.G`. Umumiy psixologiya. 1-kitob. Psixologiya bo`limi talabalari uchun o`quv qo`lanma. T. O`zMU. 2003 y.
2. G`oziyev E.G`. Psixologiya. –T., O`zMU «Universitet», 2003.
3. G`oziyev E.G`. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent: Universitet, 1990.
4. G`oziyev E.G`. Xotira psixologiyasi. –ToshDu, 1994.
5. Bernshteyn N.A. Fiziologiya dvijeniy i aktivnost. M., 1990.
6. Vasilyuk F. YE. Psixologiya perejivaniya. M., 1984.
7. I.A. Karimov. Yuksak ma`naviyat — yengilmas kuch. — T.: «Ma`naviyat», 2008.
8. 2. Гидденс Э. Социология. — 2002.
9. 3. Маерс Д. Социальная психология. — М.: Аллель, 2000
10. Маерс Д. Изучаем социальную психологию. — М.: